

KREDIT-MODUL TIZIMIDA TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA LOYIHAVIY YONDASHUV

Xasanova Gulnaza Raxatjanovna,

Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti

ПРОЕКТНЫЙ ПОДХОД К ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ В КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЕ

Хасанова Гульназа Рахатжановна,

докторант Ургенчского государственного университета

PROJECT APPROACH TO THE ORGANIZATION OF STUDENTS' INDEPENDENT LEARNING IN THE CREDIT-MODULAR SYSTEM

Khasanova Gulnaza Rakhatzhanovna,

doctoral student of Urgench State University



<https://orcid.org/0009-0003-9595-6514>

e-mail:
gulnoza.khasanova3110@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada loyiha usulining asosiy jihatlari, jumladan uning ta'rifi va mohiyatli xususiyatlari, undan ta'lim amaliyotida foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Ushbu maqola loyiha usuli nima ekanligi, u qanday afzalliliklarga ega bo'lishi mumkinligi va oliy ta'linda qanday qo'llanilishi mumkinligi haqida aniq tasavvur beradi.

Kalit so'zlar: loyiha metodi, loyiha faoliyati, muammoli ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, ta'lim shakli, mustaqil o'qish ko'nikmalar, zamonaviy ta'lim texnologiyalari.

Аннотация: В статье рассматриваются основные аспекты проектного метода, включая его определение и существенные характеристики, а также особенности его использования в образовательной практике. Эта статья дает четкое представление о том, что такое проектный метод, какими преимуществами он может обладать и как его можно применять в высшем образовании.

Ключевые слова: проектный метод, проектная деятельность, проблемное обучение, личностно-ориентированное обучение, форма обучения, навыки самостоятельного обучения, современные образовательные технологии.

Abstract: The article examines the main aspects of the project method, including its definition and essential features, and the specific features of its use in educational practice. This article provides a clear idea of what the project method is, what advantages it can have, and how it can be applied in higher education.

Keywords: project method, project activity, problem-based learning, personality-oriented learning, form of learning, independent learning skills, modern educational technologies.

KIRISH. Bugungi kunda ta'limni takomillashtirishda talabalarda mustaqil fikrlash, o'z-o'zini anglash va boshqarish qobiliyatlarini shakllantirish muhim pedagogik maqsadlardan biriga aylanmoqda. Zero, mustaqillik va o'zini anglash qobiliyatini insonning faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishi, ijtimoiy munosabatlarda mas'uliyatli ishtirokchisi sifatida shakllanishi uchun zarur asos hisoblanadi. Shu bilan birga, ta'lim jarayonida yuqori darajadagi huquqiy madaniyatni shakllantirish, ijodiy faollikni rag'batlantirish, jamoaviy hamkorlik va muloqot ko'nikmalarini

rivojlantirish, bag'rikenglik, tolerantlik kabi universal insoniy qadriyatlarni singdirish ta'limning ustuvor vazifalari sifatida belgilanmoqda.

Ayniqsa, bugungi kunda oliy ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar natijasida yangi tahlili va amaliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida ta'limda innovatsion texnologiyalar, jumladan, loyiha metodi (proyektlar o'qitish) keng joriy etilmoqda. Bu metod nafaqat o'quvchilarning bilim olish jarayoniga faol va mustaqil ravishda jalb etilishiga xizmat qiladi, balki ularda hayotiy muammolarni hal etish, jamoa bilan hamkorlikda ishlash, shaxsiy mas'uliyatni his etish, o'z nuqtayi nazarini asoslash va himoya qilish kabi muhim kompetensiyalar rivojlanishini ta'minlaydi.

Loyiha metodining afzalligi shundaki, u o'quv faoliyatini shaxsga yo'naltirilgan, ma'noli va amaliy mazmun bilan boyitadi. Bu esa, ta'limda individuallashtirish va subyekt-subyekt munosabatlarini shakllantirish imkonini beradi. Shu sababli, mazkur metod pedagogik jamoalarda, xususan zamonaviy oliy ta'lim tizimida alohida e'tibor va qiziqish uyg'otmoqda.

MUAMMONING O'RGANILGANLIK

DARAJASI. Ta'lim jarayonini takomillashtirishda talabalarda mustaqillik va o'z-o'zini anglash qobiliyatini rivojlantirish, ijodiy faoliyat va hamkorlik qobiliyatini rivojlantirish, o'zgalar fikriga nisbatan bag'rikenglik, muloqotga kirisha olish ko'nikmalarni shakllantirish kabilalar ta'limning eng muhim maqsadlariga aylanganligi ta'kidlanadi.

Bugungi kunda zamonaviy oliy ta'lim tizimida o'qituvchilar va ta'lim oluvchilarning pedagogik faoliyatini mazmuni va shakllariga o'zgartirishlar kiritilmoqda. Loyiha metodi kabi yangi pedagogik texnologiyalar barcha o'qituvchilarda qiziqish uyg'otmoqda.

XX asrning birinchi yarmidayoq o'qitishning yangi yondashuvlari, usullari va texnologiyalarini birinchilardan bo'lib ishlab chiqqan amerikalik tadqiqotchi Djon Dyui bo'lib, u ma'lum darajada loyiha metodining dastlabki namunasini taqdim etgan. Loyihalar metodi jahon pedagogikasida o'qitish amaliyotida amerikalik pedagog U.Kilpatrickning "Loyihalar metodi" (1918) nomli mashhur maqolasi nashr etilishidan ancha oldin qo'llanila boshlangan.

Ilmiy-uslubiy adabiyotlarning nazariy tahlili shuni ko'rsatdiki, olimlar loyiha faoliyatining

ahamiyatini turlicha belgilaydilar. Masalan, rus tadqiqotchilari Ye.M.Muraveva, V.D.Simonenko ishlarida ta'limning asosiy didaktik birligi sifatida ta'riflangan loyihalash faoliyatining didaktik imkoniyatlari ochib berilgan. Chunki loyihaviy faoliyat ta'lim metodi va vositasi sifatida, birinchidan, amaliy faoliyat jarayonida bilimlarni egallashning o'ziga xos usuli hisoblanadi. Ikkinchidan, loyiha faoliyati ta'lim jarayonining yaxlitligini ta'minlaydi, rivojlanish, ta'lim va tarbiyani bir butunlikda amalga oshirish imkonini beradi. Uchinchidan, loyihalash faoliyati jarayonida umumiyligi va maxsus qobiliyatlar, loyihalash madaniyati, abstrakt-mantiqiy fikrlash, ko'rgazmali-obrazli xotira va boshqalar rivojlanadi. To'rtinchidan, loyiha faoliyati bilimlarga bo'lgan ehtiyojni rivojlaniradi, o'qishning yuqori motivlarini va o'z-o'zini nazorat qilishni shakllantirishga intilishni, o'quv baholash operatsiyalari tizimini o'zlashtirishni, o'z-o'zini anglashning tartibga soluvchi komponentlarini, o'qishga ijobiy munosabatni, o'zlashtirilgan bilimlarni interiorizatsiya qilishni va boshqalarni shakllantiradi [2].

Ta'lim muammolariga loyihaviy yondashuv ta'lim oluvchiga uzlusiz ko'rsatmalar, yo'l-yo'riqlar berishga yo'naltirilgan o'qitishning qadimiy tamoyillaridan biri bo'lgan instruksionizmni qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Loyihaviy yondashuv ta'limda prinsipial yangi yondashuvga yo'naltirilgan bo'lib, u yoki bu o'quv loyihasini mustaqil ishlab chiqish va amalga oshirishni nazarda tutadi.

Loyihalar metodi - bu muammoni (texnologiyani) batafsil o'rganish orqali didaktik maqsadga erishish usuli bo'lib, u ma'lum bir tarzda rasmiylashtirilgan, to'liq real va amaliy natija bilan yakunlanishi lozim (Ye.S.Polat ta'rifiqa ko'ra). Bu ta'lim oluvchilar uchun shaxsan ahmiyatli bo'lgan muammoni yechish va yakuniy mahsulot ko'rinishida rasmiylashtirish uchun o'quvchilarning ma'lum ketma-ketlikdagi usullari va harakatlarining yig'indisidir.

MUHOKAMA. Loyihalar metodi - bu o'quv jarayonini o'quvchilarning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda qurishga imkon beradigan va o'quvchiga o'zining o'quv-bilish faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilishda mustaqillik ko'rsatish imkonini beradigan, natijada

biror mahsulot yoki hodisani yaratadigan o'qitishning kompleks usulidir.

Loyihalar metodi o'quvchida ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirishga qodir bo'lgan tadqiqot metodidir. Talabalar biror loyiha ustida ishlayotganlarida ularda barqaror qiziqish, ijodiy izlanishga doimiy ehtiyoj paydo bo'ladi. Loyihani tayyorlash jarayonida ta'lim oluvchilar mustaqil ravishda turli manbalardan yangi bilimlarni o'zlashtiradilar, shu bilan birga o'zlashtirilgan bilimlardan kognitiv va amaliy muammolarni hal qilish uchun foydalanishni o'rganadilar, guruhlarda ishlash orqali kommunikativ ko'nikmalarga ega bo'ladilar, tadqiqot ko'nikmalarini (muammolarni aniqlash, ma'lumot toplash, kuzatish, tahlil qilish va boshqalar), tizimli fikrlashni rivojlantiradilar.

Loyiha metodining asosiy maqsadi turli fan sohalaridan bilimlarni integratsiyalashni talab qiladigan amaliy vazifalar yoki muammolarni hal qilish jarayonida o'quvchilarga mustaqil ravishda bilim olish imkoniyatini berishdan iborat. Loyihalar metodiga pedagogik texnologiya sifatida to'xtaladigan bo'lsak, bu texnologiya o'z mohiyatiga ko'ra ijodiy bo'lgan tadqiqotchilik, izlanuvchanlik, muammoli metodlar yig'indisini nazarda tutadi. Loyiha doirasida o'qituvchiga ishlab chiquvchi, muvofiqlashtiruvchi, ekspert, maslahatchi roli beriladi.

Ya'ni, loyihalar metodining asosida o'quvchilarning bilish ko'nikmalarini rivojlantirish, o'z bilimlarini mustaqil ravishda qurish, axborot makonida mo'ljal olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish yotadi.

Ta'lim shakllari, metodlari va vositalarining xilma-xilligi bir tomondan o'qituvchi uchun yaxshi afzallik bo'lsa, ikkinchi tomondan darsni tashkil etishda katta qiyinchilik tug'diradi. Loyihalar metodi o'qitishning zamonaviy yondashuvi bo'lib, o'qituvchiga talabalarning real hayotdagि muammolarini hal qilish asosida o'quv jarayonini yanada samaraliroq tashkil etishga yordam beradi. Ta'limda loyihalar metodini o'rganishning ahamiyati juda yuqori bo'lib, uning tushunchasini aniqlash, xususiyatlarini tavsiflash va tasnifini ajratib ko'rsatish uchun har tomonlama tahlil talab etiladi.

Loyihalar usuli ko'plab afzallikkarga ega bo'lsa-da, ta'lim amaliyotida keng tarqalmagan. Buning sabablaridan biri ushbu usuldan

foydalanishga qo'yiladigan yuqori talablar bo'lishi mumkin:

1. Tadqiqot va ijodiy jihatdan ahamiyatli bo'lgan, integratsiyalashgan bilim va izlanishlarni talab qiladigan muammo yoki vazifaning mavjudligi.

2. Ko'zlangan natijalarning amaliy, nazariy va bilish nuqtayi nazaridan ahamiyatli bo'lishi.

3. O'quvchilarning mustaqil (individual, juftlik, guruhli) faoliyati.

4. Loyihaning mazmunli qismini tuzish (bosqichma-bosqich natijalarni ko'rsatgan holda).

5. Quyidagi ketma-ketlikni nazarda tutuvchi tadqiqot usullaridan foydalanish:

- muammoni va undan kelib chiqadigan tadqiqot vazifalarini aniqlash (qo'shma tadqiqot davomida "aqliy hujum", "davra suhbat" usullaridan foydalanish);

- masalalarni yechish gipotezalarini ilgari surish;

- tadqiqot usullarini (statistik, eksperimental, kuzatish usullari va boshqalarni) muhokama qilish;

- yakuniy natijalarni rasmiylashtirish usullarini muhokama qilish (taqdimot, ijodiy hisobotlarni himoya qilish, ko'rgazma va boshqalar);

- olingan ma'lumotlarni toplash, tizimlashtirish va tahlil qilish;

- yakunlarni chiqarish, natijalarni rasmiylashtirish va taqdim etish;

- xulosalar chiqarish, tadqiqotning yangi muammolarini ilgari surish.

Loyihalar metodining asosini o'quvchilarning bilish ko'nikmalarini rivojlantirish, bilimlarini mustaqil ravishda shakllantirish, axborot makonida yo'nalish olish, tanqidiy va ijodiy fikrlashni o'stirish tashkil etadi. Loyihalar metodi, agar u muayyan fan doirasida qo'llanilsa, didaktika va xususiy metodikalar sohasiga kiradi. U didaktik kategoriya hisoblanib, amaliy yoki nazariy bilimning ma'lum sohasini, u yoki bu faoliyatni o'zlashtirish usullari va amaliyotlari majmui sifatida talqin qilinadi. Bu bilish yo'li, bilish jarayonini tashkil etish usulidir. Shuning uchun, loyihalar metodi haqida gapirganda, muammoni (texnologiyani) batafsil ishlab chiqish orqali didaktik maqsadga erishish usuli nazardautiladi. Bu jarayon aniq, sezilarli va amaliy natija bilan yakunlanishi kerak.

O‘qituvchilar o‘z didaktik vazifalarini hal qilish uchun bu usuldan foydalanadilar. Loyihalar metodining asosida "loyiha" tushunchasining mohiyatini tashkil etuvchi g‘oya, uning amaliy yoki nazariy ahamiyatga ega muammoni yechishda olinishi mumkin bo‘lgan natijaga pragmatik yo‘naltirilganligi yotadi. Bu natijani real amaliy faoliyatda ko‘rish, tushunish va qo‘llash mumkin. U doimo talabalarning mustaqil faoliyatiga - yakka tartibda, juft bo‘lib yoki guruh bo‘lib ishlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, ma’lum vaqt davomida amalga oshiriladi. Bu usul guruhli usullar bilan uzviy bog‘liq. Loyiha usuli har doim biror muammoni hal qilishni nazarda tutadi, bu esa bir tomondan turli xil usullar va ta’lim vositalaridan foydalanishni, boshqa tomondan esa - fan, texnika, texnologiya va ijodiy sohalarning turli jabhalaridagi bilimlarni qo‘llash ko‘nikmalarini uyg‘unlashtirish zarurligini taqozo etadi. Bajarilgan loyihalarning natijalari "sezilarli" bo‘lishi kerak, ya’ni nazariy muammo aniq yechimga, amaliy muammo esa foydalanishga tayyor bo‘lgan aniq natijaga ega bo‘lishi lozim.

Taqdimot asosida o‘qituvchi talabalar ishini baholaydi (umuman guruh va yakka tartibda). Loyiha ustida ishlash to‘rt bosqichga bo‘linadi:

- 1) muammoni qo'yish (rejalashtirish);
 - 2) materialarni to'plash;
 - 3) ma'lumotlarni umumlashtirish;
 - 4) loyihani taqdim etish (prezentatsiya).

Loyiha faoliyati shunisi bilan qiziqarlik, uni talabalar va o‘qituvchilarning hamkorlikdagi o‘quv-bilish, tadqiqotchilik, ijodiy faoliyati sifatida ko‘rib chiqish mumkin. Bu faoliyat umumiy maqsadga ega bo‘lib, kelishilgan usullar va faoliyat turlariga asoslanadi hamda loyiha ishtirokchilari uchun ahamiyatli bo‘lgan biron-bir muammoni hal etish bo‘yicha umumiy natijaga erishishga qaratilgan.

Loyihalashtirish bizga bilimlarning hayotdagi va ta’limdagi ahamiyatini anglashga yordam beradi. U talabalarning psixofizik, axloqiy va intellektual rivojlanishiga, qobiliyatlarini faollashtirishga qaratilgan bo‘lib, o‘z taqdirini o‘zi belgilash, ijodiy o‘zini namoyon etish va uzluksiz ta’lim olish uchun sharoit yaratadi. Bundan tashqari, o‘z faoliyatini strategik rejalashtirish va kutilgan natijalarga erishish, jamoada ishlash qobiliyati, loyiha ishtirokchilari uchun ahamiyatli bo‘lgan biron-bir muammoni hal etish bo‘yicha umumiy

natijaga erishish ko'nikmasining shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Loyihali ta’lim talabalarning tadqiqot qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

- ma'lumotlarni izlash va tahlil qilish:
Talabalar turli manbalardan ma'lumot to'plash va
ularni tahlil qilish ko'nikmalarini o'rganadilar.

- tadqiqot metodlarini qo'llash: Talabalar ilmiy tadqiqot usullarini o'rganib, ularni amaliyotda qo'llashadi.

OLINGAN NATIJALAR VA

ULARNING TAHLILI. Pedagogika yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalarning mustaqil tayyorgarlik muammosini samarali hal qilishda loyihalar metodi yordam berishi mumkin.

Loyihalar metodi talaba uchun ahamiyatli bo‘lgan aniq amaliy natijaga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli muammoli, tadqiqot va izlanish usullaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Shaxsiy ijodiy loyihalarni tayyorlash va amalga oshirish nutq faoliyatining barcha turlarida ko‘nikmalarни rivojlantirish va takomillashtirish bo‘yicha ma’lum bir ish siklining yakuniy bosqichi hisoblanadi.

Yangi pedagogik texnologiyalarni izlash va qo'llash talabalarning bir qismida yangi ma'lumotni o'rGANISHGA ijOBiy motivatsiyaning yo'qligi bilan bog'liq. Bu jarayonda talabalar o'zlarining psixologik xususiyatlari (xotira, idrok, fikrlash) tufayli sezilarli qiyinchiliklarga duch kelishadi va materialni to'liq o'zlashtira olmaydilar. Tadqiqotchilar fikricha, loyihalar metodi aynan motivatsiya muammosini hal qilish, yangi mavzuni o'rGANISHGA ijOBiy kayfiyat yaratish imkonini beradi. Loyiha metodikasi ta'lim markazini o'qituvchidan talabaga ko'chirish, talabalar o'rtasida hamkorlik va o'zaro ta'sir uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Bu esa motivatsiya omili hisoblanadi, ijOBiy motivatsiya esa yangi ma'lumotni muvaffaqiyatli o'rGANISHNING kalitidir [4].

Mustaqil tayyorgarlik jarayonida loyiha topshiriqlarini bajarish o'quvchilarga o'z faoliyatlarining amaliy natijalarini ko'rish imkonini beradi: bunda faol mustaqil fikrlash, fantaziya, ijodkorlik, bilimlarni nafaqat eslab qolish va qayta tiklash, balki amalda qo'llash qobiliyati, harakatlarni mustaqil rejalahtirish, vazifalarni hal qilishning mumkin bo'lgan usullarini bashorat qilish, ularni amalga oshirish usul va vositalarini

tanlash qobiliyati rivojlanadi. Bundan tashqari, o'quvchilar o'zlarining tashkilotchilik qobiliyatlarini, yashirin iste'dodlarini namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Loyihalar metodidan deyarli har qanday mavzu bo'yicha dastur materiali doirasida foydalanish mumkin, chunki mavzuni tanlash uning o'quvchilar uchun kasbiy-amaliy ahamiyatini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. O'qituvchining asosiy vazifasi dastur mavzusi ustida ishslash jarayonida talabalar mehnat qiladigan muammoni shakllantirishdir. Oddiy ish bilan loyiha ishi o'rtasidagi asosiy farq shundaki, odatdagisi ishda asosiy faoliyat auditoriya doirasi bilan chegaralanadi, loyiha ishida esa asosiy qism auditoriyadan tashqarida amalga oshiriladi. Shu nuqtayi nazardan, loyiha ishlari talabalarning mustaqil tayyorgarligining eng muhim shakllaridan biri bo'lishi mumkin.

Tadqiqot usullaridan foydalangan holda auditoriyadan tashqari vaqtarda loyiha ishlarini bajarish (muammoni aniqlash, undan kelib chiqadigan tadqiqot vazifalarini belgilash, yechim gipotezasini ilgari surish, tadqiqot usullarini muhokama qilish, yakuniy natijalarini rasmiylashtirish, olingan ma'lumotlarni tahlil qilish) o'quvchilarning ilmiy, ijodiy fikrlashini faollashtiradi.

Loyihalar usuli o'qituvchilar orasida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning samarali usullaridan biri sifatida ham e'tirof etilgan. Ye.N.Polatning fikricha, loyihiar usulining asosida o'quvchilarning bilish ko'nigmalarini rivojlantirish, o'z bilimlarini mustaqil shakllantirishni va axborot maydonida yo'nalish olishni o'rganish, shuningdek tanqidiy fikrlashni rivojlantirish yotadi. Loyihalar usulining yaxshi tomoni shundaki, u talabalar va o'qituvchining birgalikda maqsad qo'yishini nazarda tutadi, talabalarga tanlash huquqini beradi, fikrlash va mulohaza yuritish qobiliyatini rivojlantiradi. Talabalar faol ishtirokchilarga aylanadilar, pedagog esa ularning faoliyatini yo'naltiradi va ularga yordam beradi. Loyiha faoliyati refleksiv faoliyatni o'z ichiga oladi, chunki bu faoliyat turi yangi yechimlar va ma'lumotlarni mustaqil ravishda izlashga ham qaratilgan.

Xulosa. Xulosa tarzida shuni ta'kidlashimiz mumkinki, ushbu maqolada biz oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mustaqil ish shakli

sifatida loyiha metodikasidan foydalanishni tahlil qildik. Ushbu loyiha maqsadlarini amalga oshirish jarayonida quyidagi xulosalarga keldik: Loyihalar usuli real amaliy natijalarga erishishga qaratilgan keng ko'lamli muammoli, tadqiqot va izlanish usullaridan foydalanishni nazarda tutadi. Loyihalar metodi bir muammoni hal qilishda turli soha talabalarining bilimlarini uzviy bog'lash va olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash imkonini beradi. Loyihalar metodi o'zining didaktik mohiyatiga ko'ra kommunikativ kompetensiyani shakllantirish vazifalarini hal qilish imkonini beradi. Loyihalar metodi - ta'limning rivojlantiruvchi, shaxsga yo'naltirilgan xususiyatining mohiyati bo'lib, muammoni batapsil ishlab chiqish orqali didaktik maqsadga erishish usulidir. Loyihaviy yondashuvning afzalligi shundaki, u darsdan tashqari muhitda ham amalga oshirilishi mumkin, bu esa uni boyitadi va mustaqil ta'lim faoliyati samaradorligini oshiradi, talabani ta'lim muassasasidagi o'quv jarayoni doirasidan tashqariga chiqaradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Белогрудова В.П., Об исследовательской деятельности учащихся в условиях проектного метода. – ИЯШ, 2004, №1;
2. Плещанова Д.Л., Метод проектов как технология личностно-ориентированного подхода. – Сб. материалов научной конференции «Чтения Ушинского», выпуск 2/nauchn.red. О.С.Егорова/, Ярославль: изд-во ЯГПУ им. К.Д.Ушинского, 2006;
3. Полат Е.С., Новые педагогические информационные технологии в системе образования.-М., 2000 г.;
4. Сокова Г.А., Из опыта использования проектной методики на уроках английского языка в 7-ом классе. –ИЯШ, 2002, №4
5. Галскова Н.Д., Теория и практика обучения иностранным языкам [Текст] / Н.Д. Галскова, Н.Д. Никитенко. – Начальная школа: метод. пособие. – М.: Айрис-пресс, 2004.
6. Дюю Дж., Демократия и образование [Текст]: пер. с англ. / Дж. Дюи. – М.: Педагогика пресс, 2000.
7. Пенковских Е.А., Метод проектов в отечественной и зарубежной педагогической теории и практике [Текст] / Е.А. Пенковских // Вопросы образования. – 2010. – №4.